



Ramazonova Gulhayyo

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs
magistranti*

**ZULMATDA QOLDIMMI YO?
(ZEBI NOLASI)**

Ayt ey, Cho‘lpon mening ham
Kunduzlarim bormikan?
Oy yonida porlagan
Yulduzlarim bormikan?

Boshimga tushdi savdo,
Etdilar elda g‘avg‘o
Men erining qotili
Qismatga bo‘ldi balo

Ketaman men qaylarga?
Sen ko‘rmagan joylarga
Onam holi ne kechar?
Boshin urar qaylarga?

Yolg‘iz qoldi bechoram,
Mening yo‘qdir hech choram.
Taqdirga hech ko‘nolmas
Sho‘rlik otam, devonam.

Sud zalida bir xayol
Sira tinchlik bermadi.
Uyimga qaytar yo‘lim
Xotirimga kelmadi.

Paranjimning ostida
Qalbim pinhon yig‘laydi.
Uyimga qaytar yo‘lim
Xotirimga kelmaydi.

Bir gul edim qo‘limga



Tikonlarni tutdilar.
Yonib turgan olovning
O'rtasiga otdilar.

Chiqmoq uchun yo'l yo'qmi?
Qochmoq uchun yo'l yo'qmi?
Bu otashdan chiqmoqqa
Boshqa hech hukm yo'qmi?

Qismatimni bitirmay,
Saodatga yetirmay,
Ketding Cho'lpon qaylarga
Surgundan afv ettirmay.

Orzu bilan yashayman.
Umid bilan yashayman.
Kimdir meni surgunda
Afv etishin istayman.

Erkni, baxtni kutyapman.
Saodatni kutyapman.
Tunlarda ko'p uxladim
Kunduzlarni kutyapman.

Haqli edim men ham bir
Suyuqli yor bo'lmoqda.
O'zim suygan yor bilan
Baxt uyini qurmoqqa.

Ilm olmoq farz edi
Menga ham sizlar kabi
Bu farz dilda qarz bo'ldi
Itarmang zulmat sari

Yolg'iz farzand edim men
Ota-onam boshida
Kim bo'ladi parvona
Mushfiqlarim qoshida.

Millat uyg'onmoq uchun

Zulmatga kirgan bo'lsam,
Xalq ko'zini ochmoqqa
Hayotim bergan bo'lsam,
Roziman har tunimga
Kunduz yaqin bilaman
Meni unga eltganni
Uzoq duo qilaman.

Istardimki, sizlardan
Chiqsin Abdulhomidlar
Cho'lpon bo'lib mening ham
Kunduzimni yozinglar.
Meni qo'yib zulmatga
Xalqqa berdi yorug'lik
Men ham qolmay tuhmatga
Cho'lpon bo'ling bir kunlik!!!